

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

TDTU Qo'qon filiali 3-24 iqtisodiyot guruh talabasi

Aliqo'ziyeva Dinora

aliqo'ziyevadinora@gmail.com

332560017

Anonatsiya: O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlik va tinchlikni ta'minlash uchun faol siyosat olib bormoqda. O'zbekistonning tashqi siyosatidagi yangi yondashuvlar, qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishdagi faollik va mintaqaviy tashkilotlardagi ishtirokini tahlil qilish orqali mamlakatning mintaqaviy xavfsizlikni saqlashdagi muhim roli ko'rsatiladi. Shuningdek, tezisda O'zbekistonning xalqaro hamkorligini o'rni, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi siyosati va mintaqadagi iqtisodiy integratsiyaga qo'shayotgan hissasi batafsil yoritiladi.

Tayanch so'zlar; geosiyosiy ahamiyat, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, transport infratuzilmsi, suv resurslari, diplomatik tashabuslar, xavfsizlik, barqarorlik, o'zaro bog'liqlik

Kirish

Markaziy Osiyo – geosiyosiy jihatdan muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaq bo'lib, uning tinchligi va barqarorligi nafaqat hududdagi davlatlarning, balki butun dunyoning xavfsizligi uchun ham muhimdir. O'zbekistonning mintaqadagi markaziy o'rni, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlaridagi o'zgarishlar, shuningdek, tashqi siyosatdagi yangicha yondashuvlar uning tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini mustahkamlanadi. Mamlakatda, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish va Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda faol ishtirok

etmoqda. Ushbu tezisdagi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi roli, uning tashqi siyosatidagi o'zgarishlar va mintaqaviy hamkorlikdagi o'rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O'zbekiston mustaqillik erishgandan so'ng, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda. Mamlakatning mintaqaviy xalqaro tashkilotdagi faoliyati, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalari va tinchlikni saqlash tashabbuslari bu borada katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning bu boradagi eng muhim yutuqlaridan biri suv resurslari bo'yicha qo'shni davlatlar bilan kelishuvlardir. 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qo'shni davlatlar suv resurslari bo'yicha kelishuvlar amalga oshirildi. Bu kelishuvlar suv resurslaridan oqilona foydalanish va mintaqaviy katta hissa qo'shdi. 2018-yilda Toshkent Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi. Ushbu konferensiya mintaqada tinchlikni saqlash bo'yicha muhim qadam bo'ldi va unda 20dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Konferensiyada Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash bo'yicha samarali muzokaralar olib borildi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar va energetika sohasidagi hamkorlik ham mustahkamlanib bormoqda. 2019-yilda Toshkent va Nur-Sulton shaharlarida ikki davlat prezidentlari o'rtasida uchrashuvlar o'tkazildi va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim rol o'ynaydi. 2021-yilda esa O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo hajmi 3 milliard AQSH dollaridan oshdi. Markaziy Osiyo Davlat Rahbaridan Maslahat Kengashi ham O'zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan. Bu kengash 2018-yilda tashkil etilib, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va tinchlikni saqlash bo'yicha muhim platforma hisoblanadi. Kengashning birinchi yig'ilishi 2018-yilning mart oyida bo'lib o'tdi va unda mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va ekologik muammolar bo'yicha kelishuvlar imzolandi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlaridagi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. 2001-yilda O'zbekiston SHHTning

asoschisi sifatida a'zo bo'lgan va bu tashkilot orqali xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va gumanitar sohada muhim tashabbuslarni amalga oshirgan. Shuningdek, 2022-yilda BMTning Tinchlikni Saqlash Missiyasiga O'zbekiston o'zining harbiy xizmatchilarini yubordi. O'zbekistonning bu yo'nalishda erishgan yutuqlari va kelajak rejalari mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mamlakat o'z faoliyatini davm ettirib, mintaqaviy tinchlikni yanada mustahkamlashga intiladi.

XULOSA

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni uning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. U diplomatik siyosati, mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va iqtisodiy integratsiya orqali mintaqaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Shu tariqa, O'zbekistonning faoliyati Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

- 1) O'zbekistonning Tashqi Siyosati va Mintaqaviy Hamkorlik, 2018-yil
- 2) Suv Resurslari va Mintaqaviy Barqarorlik, Toshkent 2017-yil
- 3) Afg'oniston bo'yicha Toshkent Xalqaro Konferensiyas, 2018-yil
- 4) O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi Savdo-Iqtisodiy Hamkorlik, 2019-yil
- 5) Markaziy Osiyo Davlat Rahabrlari Maslahat Kengashi Yig'ilishi, 2018-yil